

O‘SMIRLAR O‘RTASIDAGI ZO‘RAVONLIK HOLATLARIDA IJTIMOIIY TARMOQNI TA’SIRI.**Alisher Madrahimov***Central Asian medical Universiteti o‘qituvchisi**Sotsiologiya fanlari falsafa doktori PhD**e-mail: alisherw35@gmail.com Tel: 5813983*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlar o‘rtasida zo‘ravonlik holatlarining kuchayishida ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan zo‘ravonlik mazmunidagi kontent, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining zo‘ravonlikni qo‘llab-quvvatlashi yoki undovchi xatti-harakatlari, hamda virtual muhitda yuz beruvchi kiberhujumlarning o‘smirlarning ruhiy va ijtimoiy holatiga salbiy ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlardagi axborot oqimi o‘smirlarning zo‘ravonlik xatti-harakatlariga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda qanday rol o‘ynashi va bu xatti-harakatlarni oldini olish uchun ko‘rilishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlar ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyatning o‘smirlar bilan ishlashdagi roli, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi xavfsizlikni oshirish bo‘yicha takliflar ham ilgari suriladi.

Kalit so‘zlar: O‘smirlar, zo‘ravonlik, ijtimoiy tarmoqlar, kiberhujum, psixologik ta’sir, zo‘ravonlikka undash, virtual muhit, xavfsizlik choralari, ota-ona nazorati, tarbiyaviy chora-tadbirlar.

Hozirgi zamonaviy texnologiyalar rivoji hayotning barcha jabhalariga, xususan, o‘smirlarning kundalik faoliyati va muloqot uslubiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda yoshlarning asosiy axborot manbai va muloqot platformasiga aylangan. Biroq, bu platformalarda ko‘pincha zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontentlar, kiberhujumlar va salbiy muloqotlar uchrab turadi. Ushbu jarayon o‘smirlarning psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularni zo‘ravonlikka moyillik bilan bog‘laydi.

Mazkur ishda ijtimoiy tarmoqlarning o‘smirlar o‘rtasida zo‘ravonlik holatlarini shakllantirishdagi o‘rni, bunday vaziyatlarning sabablari, oqibatlari va oldini olish choralari atroflicha o‘rganiladi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan axborotlar nafaqat yoshlar o‘rtasidagi muloqotga, balki ularning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, mazkur mavzuni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning o‘smirlar hayotiga kirib kelishi nafaqat ijobiy, balki salbiy holatlarni ham keltirib chiqaradi. Yoshlarning o‘zaro muloqoti ko‘pincha virtual muhit orqali amalga oshayotgan bir paytda, bu muhitda tarqalgan zo‘ravonlik

mazmunidagi kontentlar va xatti-harakatlar ularning ruhiyatiga zarar yetkazishi mumkin. Jumladan, kiberbullying (kiberzo‘ravonlik), haqoratlar, tahdidlar va shaxsiy ma’lumotlarning oshkor qilinishi kabi holatlar o‘smirlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi va ularda salbiy xatti-harakatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ushbu tadqiqotda ijtimoiy tarmoqlar orqali sodir bo‘layotgan zo‘ravonlikning asosiy ko‘rinishlari, ularning o‘smirlar hayotidagi oqibatlari va ushbu jarayonlarni nazorat qilishning samarali usullari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, zo‘ravonlikni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash, ijtimoiy tarmoqlar orqali salbiy ta’sirning oldini olishda ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyatning tutgan o‘rni muhokama qilinadi.

Hozirgi globallashuv jarayonida va jahonda olamshumul o‘zgarishlar sodir bo‘layotgan bir paytda biz nafaqat aniq bir inson, balki butun jamiyat hayotiga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelayotgan axborot texnologiyalarining ajoyib ixtirolaridan biri bo‘lmish sotsial tarmoqlarni chetlab o‘tolmaymiz. Joriy vaqtda sotsial tarmoqlar deyarli butun dunyoni qamrab olgan. Ayniqsa, yosh avlod juda ham sotsial tarmoqlarni yaxshi ko‘radi.

Agar biz sotsial tarmoqlar soniga va ularning turlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning hammasini yoritishda bu maqola ojizlik qiladi. Keling biz eng mashhur sotsial tarmoqlar va ularga qancha foydalanuvchi a’zo bo‘lganligiga bir nazar tashlaylik: Facebook – 750 million, Twitter – 200 million, Qzone – 480 million, Odnoklassniki.ru – 100 million, V kontakte – 135 million va hokazo. Mana ko‘rib turganingizdek, shu raqamlar insoniyatning qanchalik sotsial tarmoqlar ichiga kirib ketayotganligidan dalolat bermoqda. Tabiiyki, sizda savol paydo bo‘lishi mumkin: bu yaxshimi yoki aksinchami? Albatta, ko‘pchilik bu tarmoqlarni ma’qullaydi va unga ijobiy baho beradi. Chunki, hozir sotsial tarmoqlar bo‘sh vaqtni o‘tkazishning eng yaxshi vositasi hisoblanadi. Endi esa, keling, sotsial tarmoqlarnig bizning hayotimizga, dunyoqarashimizga, ongimizga, aql-u shuurimizga va sog‘lig‘imizga qanday ta’sir etishi haqida fikr yuritaylik. Internetning zo‘r berib rivojlanishi bilan odamzod borgan sari me’yorni unutilib, uning girdobiga bexosdan tortilmoqda. Axir biz bir muhim narsani esdan chiqarmasligimiz darkor: real hayot boshqa, virtual hayot boshqa. Biz kundalik hayotda odamlar bilan jonli muloqotda bo‘lamiz, jonli fikr almashinamiz va o‘zimizga kerakli bo‘lgan xulosalarni chiqaramiz. Virtual hayot esa insonni tamomila dunyoqarashi va ongini o‘zgartirib yuborishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlarning o‘smirlar ongiga ta’siri. Ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda o‘smirlar hayotida asosiy muloqot vositasiga aylangan. Ushbu platformalar orqali o‘smirlar turli mavzular bo‘yicha ma’lumot olishadi, fikr almashadilar va o‘zlarini namoyon etadilar. Biroq, ijtimoiy tarmoqlar ko‘pincha salbiy axborot manbai ham bo‘lib xizmat qiladi. Jumladan:

- Zo‘ravonlik mazmunidagi kontentlar tarqalishi;

- Agitatsion yoki zo‘ravonlikni rag‘batlantiruvchi videolar va postlar;
- Kiberbullying, tahdidlar va haqoratlar.

Bunday holatlar o‘smirlar ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning xulq-atvorida tajovuzkorlikni kuchaytirishi mumkin. O‘smirlar ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlardagi xatti-harakatlarni o‘rnak sifatida qabul qilishadi, bu esa ular o‘rtasida zo‘ravonlik holatlarining ko‘payishiga olib keladi.

Zo‘ravonlikning asosiy shakllari va ko‘rinishlari. Ijtimoiy tarmoqlardagi zo‘ravonlik quyidagi asosiy shakllarda namoyon bo‘ladi:

- Kiberbullying: O‘smirlarning virtual muhitda tahqirlanishi, ularning sha‘ni va qadr-qimmatiga zarar yetkazuvchi postlar yoki xabarlar yuborilishi.
- Trolling: Maxsus guruhlar yoki shaxslar tomonidan biron-bir shaxsni obro‘sizlantirish yoki kamsitishga qaratilgan faoliyat.
- Qarama-qarshilikni targ‘ib qilish: Ijtimoiy tarmoqlarda zo‘ravonlikka undovchi guruhlar va kontentlarning mavjudligi.

Bunday holatlar o‘smirlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytirib, ularni tajovuzkor xatti-harakatlarga undashi mumkin. Bu jarayonlar natijasida o‘smirlar o‘z tengdoshlari bilan yuzma-yuz muloqot qilishdan cheklanishi yoki aksincha, tajovuzkorlikka moyil bo‘lishi mumkin.

Ota-onalar va jamiyatning roli. Ijtimoiy tarmoqlardagi zo‘ravonlikning oldini olishda ota-onalar va pedagoglarning roli juda muhim. Ular o‘smirlarning internetdan foydalanishini nazorat qilishi, xavfsiz muhit yaratishi va ularga sog‘lom muloqot madaniyatini o‘rgatishi kerak. Quyidagilar asosiy chora-tadbirlar sifatida taklif etiladi: O‘smirlar bilan muntazam suhbatlar o‘tkazish va ularga onlayn xavfsizlik qoidalarini tushuntirish;

- Ijtimoiy tarmoqlarda vaqt sarflashni cheklash va foydali faoliyatlarga yo‘naltirish;
- Kiberzo‘ravonlik holatlarini erta aniqlash va ularga qarshi choralar ko‘rish;
- Maktablarda axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus trening va seminarlar o‘tkazish.

Ijtimoiy tarmoqlarni xavfsizlashtirish bo‘yicha takliflar. Zo‘ravonlikni kamaytirish maqsadida ijtimoiy tarmoqlarni xavfsiz muhitga aylantirish zarur. Bu borada quyidagilar amalga oshirilishi mumkin: Zo‘ravonlik mazmunidagi kontentni filtrlaydigan algoritmlarni takomillashtirish;

- Foydalanuvchilarning shikoyatlarini tezkor ko‘rib chiqish tizimini yaratish;

- Yoshlar uchun xavfsiz platformalar va maxsus ilovalarni rivojlantirish;
- Davlat organlari tomonidan ijtimoiy tarmoqlardagi kontentni nazorat qilish tizimini kuchaytirish.

Ushbu chora-tadbirlar yoshlarning ruhiy holatini mustahkamlash va ularni zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan.

Xulosa

Ijtimoiy tarmoqlar o‘smirlar hayotida muhim rol o‘ynasa-da, ular bilan bog‘liq xavf-xatarlar, xususan, zo‘ravonlik holatlarining kuchayishi jiddiy muammo sifatida ko‘rinmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda zo‘ravonlik mazmunidagi kontentlar va kiberbullying o‘smirlarning ruhiy salomatligi va ijtimoiy xulq-atvoriga salbiy ta‘sir qiladi. Bu holatlar o‘z navbatida yoshlar orasida stress, tushkunlik va tajovuzkorlikka olib kelishi mumkin.

Zo‘ravonlikning oldini olish uchun ota-onalar, pedagoglar, psixologlar va ijtimoiy tarmoq platformalari o‘rtasida hamkorlik zarur. O‘smirlarning internetdan xavfsiz foydalanishini ta‘minlash, ularga axborot xavfsizligi madaniyatini o‘rgatish va zararli kontentlarning tarqalishini cheklash bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rilishi lozim.

Shuningdek, davlat organlari tomonidan qonunchilik bazasini takomillashtirish, ijtimoiy tarmoqlarda kiberzo‘ravonlikka qarshi choralar ishlab chiqish va monitoring tizimini kuchaytirish muhimdir. Ushbu chora-tadbirlar o‘smirlar o‘rtasida sog‘lom va xavfsiz muhitni shakllantirishga yordam beradi hamda ularning jamiyatga foydali shaxs sifatida rivojlanishini ta‘minlaydi.

Natijada, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning rivojlanishida ijobiy rol o‘ynashi uchun ularning xavfsizligini ta‘minlash va zo‘ravonlik holatlarining oldini olish jamiyatning barcha qatlamlari uchun ustuvor vazifa bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T. “Movaraunnahr”, 2016. –B.5.
2. Rajabov H.I “Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiyamaliy konferentsiya materiallari T.: “Fan va texnologiya” 2020 yil, B-207
3. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo‘llari. - Toshkent, 2004-y